



Husan ARZIQULOV,

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: arziqulovhusannormurodovich@gmail.com

Gulyora XUDOYBERDIYEVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti matematika-informatika fakulteti talabasi

NavDPI dotsenti, PhD S.Xolikov taqrizi asosida

USE OF BLENDR AND 3D MAX PROGRAMS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE INFORMATICS TEACHERS

Annotation

This article analyzes the role of graphic programs such as Blender and 3D Max in the process of developing the professional graphic competence of future informatics teachers. The possibilities of creating various graphic resources in the educational process are described. It explains how these programs help teachers improve their skills in design, animation, and creating multimedia learning resources. The article examines scientific approaches to these issues, the possibilities of using technological tools and software, and provides clear directions for the professional growth of future informatics teachers.

Key words: Professional competence, creative thinking, computer graphics, blender program, 3D Max program, 3D modeling, 3D design and animation.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММ BLENDR И 3D MAX В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация

В данной статье анализируется роль графических программ, таких как Blender и 3D Max, в процессе развития профессиональной графической компетентности будущих учителей информатики), описываются возможности создания различных графических ресурсов в образовательном процессе. В нем объясняется, как эти программы помогают учителям улучшить свои навыки в области дизайна, анимации и создания мультимедийных учебных ресурсов. В статье рассматриваются научные подходы к этим вопросам, возможности использования технологических средств и программного обеспечения, а также приводятся четкие направления профессионального роста будущих учителей информатики.

Ключевые слова: Профессиональная компетентность, творческое мышление, компьютерная графика, программа blender, программа 3D Max, 3D-моделирование, 3D-дизайн и анимация.

BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BLENDER HAMDA 3D MAX DASTRULARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqloda bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlanirish jarayonida Blender va 3D Max kabi grafik dasturlarning roli tahlil qilinadi. Blender va 3D Max dasturlaridan foydalanishning afzalliklari, turli xil grafik resurslarni yaratish imkoniyatlari bayon etiladi. Ushbu dasturlarning o'qituvchilarga dizayn, animatsiya va multimedia ta'limgiz resurslarini yaratish bo'yicha malakalarini oshirishga yordam berishi tushuntiriladi. Maqola ushbu masalalar bo'yicha ilmiy yondashuvlarni, texnologik vositalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatlarini o'rganib, bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy o'sishiga yordam beradigan aniq yo'nalishlarni taqdirm etadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetentlik, ijodiy fikrash, kompyuter grafikasi, Blender dasturi, 3D Max dasturi, 3D modellashtirish, 3D dizayn va animatsiya.

Kirish. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlanirishda bir nechta muhim usullar mavjud. Ushbu kompetentlikni rivojlanirish orqali informatika o'qituvchilari zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash, ijodiy fikrash, va grafik vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini oshiradilar.

Oliy ta'limgiz tizimini rivojlanirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – kreativ fikrlaydigan va kasbiy kompetensiyalarga ega bitiruvchilarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun esa oliy ta'limgiz muassasalarida muxassislarining tayyorlashga qo'yilgan malaka talablarida ta'limgiz ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan yangi yondashuvlarni joriy etishni, ya'ni raqamli o'quv vositalar va ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini tashkil etishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'limgiz muassasalarini talabalarining kompetentligini rivojlanirish

nazariyasi va amaliyoti hamda metodikasiga oid izlanishlar S.M.Abdiyeva, F.X.Kazratov, Sh.U.Eshonqulov, R.M.Sadikov, G.J.Abilova, D.M.Kambarova, Z.K.Kurbaniyazova, U.N.Ibragimov, N.Y.Qurbanov, M.R.Kadirova, N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev, Q.Abdullayeva, T.M.Sorokina, V.V.Demidov, N.M.Slautina, Y.V.Puziyenko, M.G.Daudov, YE.V.Shostak, YE.B.Bashkin, YE.V.Timoxina, O.A.Volkova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Keltirilgan olimlarning ishlarida oliy ta'limgiz muassasalarini talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlanirishda turlicha fikr va mulohazalar hamda yondashuvlarni ilgari surgan. [1]

Xususan, G.M.Kodjasirovaning fikriga ko'ra, "o'qituvchi malakali o'qituvchi bo'lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi kerak", deb hisoblaydi [2]. N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha,

kompetentlik – olingen nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini amaliyatga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi, bu ham talabaning amaliyat jarayonida va oly ta'limdi keyingi faoliyatida shakllanib boradi [3].

Shu bilan birga hozirgi vaqtida butun jamiyatning e'tibori kasbiy kompetentlik masalasiga qaratilib, pedagogika sohasida o'qituvchilarining kasbiy muammosini har tomonlama tahlil qilishga oid izlanishlar olib borilmogda va kasbiy kompetentlikka oid olimlar tomonidan turlicha ta'riflar keltirilgan [4].

Keltirilgan olimlarning ishlarini tahliliga ko'ra, bugungi kunda bo'lajak infomatika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kompyuter grafik dasturlardan foydalanish zarurati tug'ilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak infomatika o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda "Blender" va "3D Max" dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu dasturlar grafika, dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha fundamental bilimlarni rivojlantirishda yordam beradi va ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Blender – ochiq manbali, bepul dastur bo'lib, 3D model yaratish, vizual effektlar (VFX), animatsiya, rendering va video tahrirlash imkonini beradi. Dasturda 3D model yaratish va tahrirlash uchun turli xil vositalar mavjud. Blenderni infomatika o'qituvchilar uchun o'qitish jarayonida qo'llash orqali ular 3D dizayn va animatsiya sohasidagi yangi texnologiyalar va usullar bilan tanishadilar. Bu ularning grafika dizayni va animatsiya sohasida ham kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3D Studio Max (yoki 3d Max) – bu Autodesk kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va grafik dizaynerlar, me'morlar, muhandislar, o'ynilar ishlab chiquvchilarini va animatsion filmlar yaratishda keng qo'llaniladigan dasturiy ta'minot.

3D Max asosan yuqori sifatlari 3D modellarni yaratish, rendering va animatsiya qilish uchun qo'llaniladi. 3D Maxdan foydalanish orqali infomatika o'qituvchilar o'zlarining 3D grafiklar, animatsiyalar va virtual muhitlar yaratish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu o'z navbatida o'quvchilar uchun ham qiziqarli va samarali ta'lum jarayonini yaratishga yordam beradi.

Blender va 3D Max dasturlaridan foydalanishning afzalliklariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak: Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish: Ushbu dasturlardan foydalanish bo'lajak infomatika o'qituvchilarining ta'lum berish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini oshiradi. Ijodiy fikrashni rivojlantirish: Grafik dizayn va 3D modellashtirish orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z ijodiy fikrash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Blender va 3D Max dasturlari bilan ishlash infomatika o'qituvchilariga raqamli texnologiyalar bo'yicha yanada chuqurroq bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniyatini beradi.

Bu dasturlar orqali o'qituvchilar nafaqat zamonaviy grafik texnologiyalardan foydalanishni o'rganadilar, balki

ta'limda innovatsion yondashuvlar yaratishga ham xizmat qiladi.

Bo'lajak infomatika o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish nazarga tutilsa maqsadga muovofiq bo'lar edi.

Tahlil va natijalar.

I. Maxsus kurs va dasturlarni tashkil etish: Grafik dizayn va 3D modellashtirish kurslari: Informatika o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish uchun grafik dizayn, 3D modellashtirish, animatsiya, va multimedia texnologiyalari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish. Ushbu kurslarda "Blender", "3D Max" kabi dasturlarni o'rganish, amaliy loyihalar ustida ishlash va tajriba almashtish muhim.

II. Mustaqil bajarishlari uchun o'quv-metodik materiallarni yaratish: Raqamli qo'llanmalar va videodarsliklar: Grafik dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha qo'llanmalar, videodarsliklar va o'quv materiallarni ishlab chiqish.

Ushbu materiallarni o'qituvchilar uchun mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ishchi daftarlari va resurslar: Dars jarayonida foydalanish uchun turli xil grafik resurslar, masalan, andozalar, grafik elementlar, mashq topshiriqlari va boshqa amaliy materiallarni yaratish.

III. Zamonaviy texnologiyalar bilan tanishitish: Yangi dasturlarni o'rganish: Blender, 3D Max kabi dasturlardan tashqari, grafik dizayn, raqamli san'at va animatsiya sohasidagi yangi texnologiya va dasturlardan xabardor qilish. Virtual reallik (VR) va qo'shilgan reallik (AR): Ushbu texnologiyalarni ta'linda qo'llash imkoniyatlarini haqida o'rgatish va ulardan foydalanishni o'rgatish.

IV. O'quvchilar bilan ishlashda interaktiv usullarni qo'llash:

Interaktiv darslar va loyiha ishlari: Dars jarayonida o'quvchilar bilan birlashtirishda grafik dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish. Bu o'quvchilarining qiziqishini oshiradi va o'qituvchilarga amaliy tajriba beradi. Ko'rgazma va taqdimatlar: Yaratuvchanlik va ijodiy fikrashni rivojlantirish uchun grafik loyihalarni ko'rgazma qilish va taqdimatlar o'tkazish.

V. Axborot texnologiyalari bo'yicha innovatsion tadqiqotlar: Innovatsion yondashuvlarni o'rganish: Grafik dizayn va 3D modellashtirish sohasida tadqiqot ishlarni olib borish, yangi texnologiyalarni ta'lum jarayoniga qanday samarali tatbiq etish mumkinligini o'rganish. Bu tadbirlar orqali infomatika o'qituvchilar nafaqat grafik dizayn va 3D modellashtirish bo'yicha malakalarini oshirishlari, balki zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa va takliflar. Bu kabi dasturlar bilan ishlashni, ular yordamida turli loyihalar va veb ilovalar, saytlar tayyorlashni bo'lajak infomatika o'qituvchilariga o'rgatishda qizinchilik paydo bo'ladi. Chunki keltirilgan grafik dasturlarni to'laligicha auditoriyada bo'lajak infomatika o'qituvchilarga o'rgatish imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun bo'lajak infomatika o'qituvchilarining mustaqil o'rganishga oid didaktik o'quv vositalarni va muammoli topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish maqsadga muovofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- Arziqulov H.N. Bo'lajak infomatika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari, Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirish, Nukus 2022-yil № 5. – 116 b.
- Коджаспирова Г.М.. Педагогика // Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: “Гардарики”, 2004. – 528 с.
- Muslimov N.A., Abdullayeva Q. Bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari // “Oliy ta'lum muassasalari pedagog va boshqaruva kadrlari- ning malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Toshkent , 2012. – В. 26-28.
- Барынникова И. Е. Профессиональная компетентность: виды, структура и современные подходы // file:///C:/Users/User/Downloads/professionalnaya-kompetentnost-vidy-struktura-i-sovremenennye-podhody.pdf